



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TADQIQOTLARI VA ILG'OR  
TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH MARKAZI DIREKTORINING  
BUYRUG'I**

2022-yil 01- noyabr      28-son

Toshkent sh.

**Oliy ta'lif muassasalarini rivojlantirish  
jamg'armasi hisobidan "Study in  
Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab  
chiqish va ishga tushirish yuzasidan Xarid  
komissiyasini tuzish to'g'risida**

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika Kengashi  
yig'ilishining 2022-yil 7-apreldagi 8-sonli bayonnomasi hamda O'zbekiston  
Respublikasi Oliy va o'rta ta'lif vazirining "Mamlakat oliy ta'lif jozibadorligini  
targ'ib qiluvchi "Study in Uzbekistan", - "O'zbekistonda tahsil ol" maxsus veb-  
portalini ishlab chiqish to'g'risidagi" 2022-yil 13-iyundagi 207-son buyrug'i ijrosini  
ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1. Quyidagilar:**

tovarlar (ish, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha  
tanlov o'tkazishda Oliy ta'lif muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan  
ajratilgan mablag'lar hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab  
chiqish va ishga tushirish bo'yicha Xarid komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

tovarlar (ish, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha  
tanlov o'tkazishda Oliy ta'lif muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan  
ajratilgan mablag'lar hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab  
chiqish va ishga tushirish bo'yicha Xarid komissiyasining ish reglamenti  
2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Elektron tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor  
faoliyatini tashkil etish uchun mas'ul kotibi etib ovoz berish huquqisiz Axborot  
kommunikatsiya-texnologiyalari bo'limi yetakchi mutaxassis M.Yo'ldashev  
tasdiqlansin.**

**3. Buxgalteriya bo'limi (U.Ahmedovga)ga:**

**bir hafta muddatda** Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg' armasidan ajratilgan mablag'lar hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab chiqish va ishga tushirish bo'yicha maxsus axborot portaliga e'lon berish; davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni olib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi (S.Gaziyevga)ga:

tanlovda g'olib bo'lgan pudratchi tashkilotni veb-portalning tasdiqlangan texnik talablariga mos ravishda yaratilishini nazorat qilish;

"Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab chiqilgandan so'ng, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda maxsus veb-portalni belgilangan tartibda joylashtirish uchun markazning ma'lumotlar bazasidan joy ajratish, saqlash va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish;

veb portalni axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish;

maxsus veb-portalini tasdiqlangan konsepsiysi va texnik talablar bo'yicha ishslashini monitoring qilish;

**ikki hafta muddatda** maxsus veb-portalga joylashtirish uchun taqdim etiladigan ma'lumotlar ro'yxati va ularni jamlashtirib borish bo'yicha alohida reglament ishlab chiqish hamda tasdiqlash uchun kiritish vazifalari yuklatilsin.

5. Direktorning birinchi o'rinnbosari (M.Esanov)ga:

Oliy ta'lim muassasalarining veb-portalda ajratilgan profilini yuritishi va yangilab borishi uchun mas'ul xodim biriktirilishini hamda kerakli ma'lumotlar bilan to'ldirib borilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



Sh.Yakubov



Oliy ta'lימי rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktorining 2022-yil 11 - noyabr dagi son buyrug'iiga 1-ilova

**Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha tanlov o'tkazishda Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab chiqish va ishga tushirish yuzasidan Xarid komissiyasining tarkibi**

Nº	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	Sh.Yakubov	Markaz direktori, <b>Komissiya raisi.</b>
2.	M.Esanov	Markaz direktorining birinchi o'rinosi. <b>Komissiya raisi o'rinosi.</b>
3.	Sh.Rasulov	Markaz direktori o'rinosi v.v.b, <b>a'zo.</b>
4.	S.Gaziyev	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi boshlig'i, <b>a'zo.</b>
5.	U.Ahmedov	Buxgalteriya bo'limi boshlig'i, <b>a'zo.</b>
6.	Sh.Murodullayev	Bosh yuristkonsult, <b>a'zo.</b>
7.	I.Mamajonov	Darslik, o'quv qo'llanmalar va maxsus adabiyotlar bilan o'quv jarayonini ta'minlash bo'limi boshlig'i, v.v.b <b>a'zo.</b>



Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni  
tatbiq etish markazi direktorining  
2022-yil "25"-naya dagi  
son buyrug'iiga 2-Ilova

**Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha  
Elektron tanlov o'tkazishda Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish  
jamg'armasi hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab  
chiqish va ishga tushirish yuzasidan Xarid komissiyasining  
ISH REGLAMENTI**

**1. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur reglament O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sen Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sen qaroriga ilova tarzida tasdiqlangan **Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi** Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantiriladigan hamda tartib-taomillarni o'tkazish tartibida shakllantiriladigan kollegial organdir.

Elektron tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkillashtiradi.

1.3. Mazkur reglament asosida, Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab chiqish va ishga tushirish bo'yicha firmalarni tanlash, veb-portalni arzon narxlarda sifatli ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi, muhokama etiladi va qarorlar qabul qiladi.

**2. Xarid komissiyasining maqsadi va vazifalari**

2.1. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi – ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni tanlashdan iborat.

2.2. Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

Elektron tanlov hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

takliflarni ko'rib chiqish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomillariga baholash mezonlari asosida qonun hujjatlariga muvofiq baholashni amalga oshiradi.

**3. Xarid komissiyasining ishini tashkil etish**

3.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqtolari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

direktorining buyrug'i bilan elektron tanlovn o'tkazish uchun toq sonli a'zolardan (kamida besh kishidan) iborat xarid komissiyasi tuziladi.

Bunda xarid komissiyasi a'zolari davlat buyurtmachisining vakillari orasidan, zarur hollarda ekspertlar ovoz berish huquqisiz jalb etilgan holda shakllantiriladi.

Xarid komissiyasi tarkibi bir kalendar yili uchun tasdiqlanadi.

3.2. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rribosari bajaradi.

3.3. Elektron tanlov o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lмаган mas'ul kotibi tashkillashtiradi.

Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarining takliflarini elektron tanlov hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

eslektron tanlov hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarining takliflarini baholash natijalarini elektron tizimga kiritadi.

3.4. Xarid komissiyasi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kuni ichida talabgor ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqib baholash;

talabgorlar tomonidan shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni, narx takliflarini baholash, chuqur tahlil qilish va tegishli xulosalarni qabul qilish;

talabgorlar tomonidan taqdim etilgan narx takliflarini ko'rib chiqishda narxlarning sun'iy ravishda oshirilishining oldini olish va xolislikka hamda qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;

talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan elektron tanlov hujjatlarini, qo'yildigan talablarga va qoidalarga mosligini ko'rib chiqish;

talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan tovar (ish, xizmat)larga talab etiladigan sertifikat va litsenziyalarni ko'rib chiqish;

talabgorlar tomonidan eng yaxshi shartlarni taklif qilgan talabgorni ushbu ish reglamentidagi baholash mezonlari asosida tanlab olish va g'olib tashkilot bilan shartnomasi rasmiylashtirish bo'yicha qaror qabul qilish.

3.5. Xarid komissiyasi yig'ilishlarida quyidagilar muhokama qilinadi va tasdiqlanadi:

maxsus veb-portalni yaratish bo'yicha boshlang'ich narx takliflarini belgilash;

elektron tanlov hujjatlarini muhokama etish va tasdiqlash;

e'lon matnini tasdiqlash;

3.6. Xarid kommissiyasi yig'ilishlarida komissiyaning uchdan ikki qismi ishtirok etganidan komissiya ish faoliyati vakolatli hisoblanadi.

3.7. Talabgorlar xarid bo'yicha elektron tanlov e'lon qilingan kundan boshlab tanlovda ishtirok etishi va takliflar berishi mumkin.

3.8. Elektron tanlovda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida uch kun oldin buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

3.9. Elektron tanlovda qo'yilgan lot uchun faqat bitta g'olib aniqlanadi va o'sha g'olib tomonidan talab etilgan barcha vazifalarni bajarishni zimmasiga oladi.

3.10. Agar takliflar berish muddati tugagan paytda xarid komissiyasi tomonidan elektron tanlov ishtirokchilaridan tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlov o'tkazilgan deb topiladi.

#### **4. Elektron tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash**

4.1. Tanlov ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar elektron shaklda baholash mezoniqa asosan baholanadi.

4.2. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

4.3. Takliflar o'rganilganda barcha hujjatlarning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Tegishli hujjatlar bo'lмаган holatda, elektron tanlov komissiyasi ushbu taklifni ko'rib chiqish va baholashga qo'ymaslikka haqli.

4.4. Takliflarni baholash vaqtida ishtirokchilar taqdim etgan barcha hujjatlar komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

4.5. Tanlov komissiyasi g'olibni aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni ish reglamentida qayd etilgan mezonlar asosida baholashni amalga oshiradi.

4.6. Tanlov hujjatlarini baholash maqsadida tanlov komissiyasi komissiya a'zolari va ekspertlardan iborat bo'lgan baholovchi guruh tuzishga haqli.

4.7. Baholash paytida elektron tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilaridan takliflari bo'yicha tushuntirishlar so'rashga haqli emas. Mazkur jarayon elektron shaklda tanlov tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda olib boriladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyati, shuningdek narxi yuzasidan biror-bir o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.

4.8. Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib deb topiladi.

Bunda xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo'ladi.

4.9. Xarid komissiyasi a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqida xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Agar xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

4.10. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash quyidagi tartibda olib boriladi:

elektron tanlov takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tanlov ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

takliflari ko'rib chiqilgan elektron tanlov ishtirokchilari to'g'risidagi;

takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan holda rad etilgan elektron tanlov ishtirokchilari haqidagi;

tanlov g'olib to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tanlov g'olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxslar uchun), turgan joyi (pochta manzili).

4.11. Takliflar baholanishi yakunlangandan so'ng ballar hisoblanib, yuqori ball to'plagan talabgorlar elektron shaklda tanlab olinadi va tasdiqlanadi.

## **5. "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab chiqish va ishga tushirish uchun narx takliflarini baholash mezonlari**

5.1. Boshlang'ich narx taklifini belgilash quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi:

taqdim etilgan narx takliflari ichidan eng kam narx taklifi yoki talab darajasidagi mahsulot sifatini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan narx taklifi boshlang'ich narx deb belgilanadi.

5.2. Elektron tanlov takliflarini baholashda reglament bo'yicha eng yuqori ballni to'plagan ishtirokchi tanlov g'olib deb topiladi.

5.3. Elektron tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida, g'olibni aniqlash jami 100 ball bilan baholanadi va quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi:

### **a) Elektron tanlov ishtirokchisining faoliyatini baholash.**

Tanlov ishtirokchisining faoliyatini baholash quyidagi mezonda amalga oshiriladi:

tanlov ishtirokchisi tomonidan korxona faoliyatiga doir dastlabki talab etilgan hujjatlar 1-shaklning, 2-i洛valari bilan birgalikda to'liq taqdim etilganda hamda ishtirokchi korxonaning faoliyat davomiyligi kamida 1 yilni tashkil etganda 5 ball beriladi;

tanlovga qo'yilgan turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish, dasturiy maxsulotlarni ishlab chiqish faoliyati hisoblanib, Ushbu faoliyatini tasdiqlovchi hujjat

mavjud bo'lsa 10 ball beriladi, mavjud bo'lmasa "0" beriladi va talabgor tanlovdan chetlashtiriladi.

**Jami maksimal ball – 15.**

**b) Elektron tanlov ishtirokchisining mas'uliyatini baholash.**

Elektron tanlov ishtirokchisi oldin o'tkazilgan tanlovlarda shartnomada ko'zda tutilgan majburiyat va vazifalarni belgilangan muddatda va talablar darajasida o'z vaqtida amalga oshirgan bo'lsa 10 ball, ijrosi ta'minlanmagan holatlarda ball berilmaydi.

**Jami maksimal ball – 10.**

**d) Elektron tanlov ishtirokchisining tajribalarini baholash.**

Ishtirokchi tomonidan elektron tanlovga qo'yilgan turga o'xshash mahsulotni ishlab chiqarish imkoniyati ko'rib chiqiladi. Dasturiy mahsulotlarni yaratishda qaysi zamonaviy texnologiyalar(dasturlash tillari va ularning kutubxonalar, ma'lumotlar bazasi, dizayn va v.k)dan foydalanish darjasasi ko'rib chiqiladi. Agarda ushbu sohada 15 yil va undan ortiq ish faoliyatiga ega bo'lsa 15 ball, 10 yil yoki 5 yildan ko'p bo'lsa 10 ball, 5 yildan kam bo'lsa 2 ball beriladi.

Eng zamonaviy texnologiyalar asosida muvaffaqiyatli yaratilgan va hozirda ishchi holatida bo'lgan 10 tadan ko'p loyihasi mavjud bo'lsa 10 ball, 5 va undan ortiq ortiq bo'lsa 5 ball, 5 tadan kam bo'lsa 2 ball beriladi.

**Jami maksimal ball – 25.**

**e) Elektron tanlov ishtirokchisining oldingi muvaffaqiyatli bajargan ishlarini baholash.**

Ishtirokchining oldingi muvaffaqiyatli bajargan va hozirda aktiv bo'lgan ishlarini soniga nisbatan jami 15 ball bilan baholanadi. Namuna:

1. Davlat tashkilotlari veb sayti 2 ta — 9 ball.
2. Veb platforma 1 ta - 2 ball.
3. Veb-portal 1 ta - 2 ball.
4. Boshqa veb sahifalar 1 ta - 2 ball.

Bunda  $9+2+2+2=15$ . Demak, oldingi muvaffaqiyatli bajargan ishlarining umumiyl miqdoriga qo'yilgan maksimal 15 ballni tashkil qiladi.

**Jami maksimal ball – 15.**

**f) Elektron tanlov ishtirokchisining xodimlar(dasturchi, dizayner, tarjimon kopirayter v.b) soni.**

Xodimlar soni va lavozimiga qarab baholanadi. Bunda veb-portalni yaratish uchun xodimlar soni yetarli bo'lsa 15 ball beriladi. Elektron tanlov ishtirokchisining tarkibida kamida veb dasturchilar(Frontend va Backend) – 6 tani, dizaynerlar 4 tani, boshqaruvchi (teamleader) – 3 tani, testlovchilar – 4 tani, kopirayter – 4 ta, tarjimon (rus, ingliz) – 2 ta va yordamchi ishchilar – 8 tani tashkil etganda 15 ball beriladi. Agar xodimlar soni(lavozimiga mos ravishda) kamida yuqoridagilarni 50% ni tashkil etsa 5 ball beriladi. Asosiy vazifalarni bajaruvchi xodimlar bo'lmasan taqdirda ball berilmaydi.

Misol uchun:

- veb dasturchilar - 3 ta;
- dizaynerlar - 2 ta bo'lsa 5 bal beriladi.

**Jami maksimal ball – 15.**

**g) Elektron tanlov ishtirokchisini moliyaviy ahvoli bo'yicha baholash.**

Elektron tanlov ishtirokchisining moliyaviy ahvolini baholash quyidagilarga nisbatan jami 15 ball bilan baholanadi:

1. Mahsulotni ishlab chiqarish uchun taklif etayotgan narx taklifining kamida 30% va undan yuqori miqdorda o'zining hisobida pul mablag'lari mavjud bo'lsa, 5 ball beriladi. 30% va undan kam miqdorda o'zining hisobida pul mablag'lari mavjud bo'lsa ball berilmaydi va elektron tanlov g'olib sifatida tavsiya etilmaydi.
2. Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan balans (Forma-1), moliyaviy natijalar to'g'risidagi (Forma-2) ma'lumotlar "tanlov ishtirokchisining moliyaviy ahvoli" (6-shakl) dagi ma'lumotlar bilan bir xil bo'lganda 5 ball beriladi.

Tanlov g'olib keyingi o'rinda turgan talabgorlarning ballar ketma-ketligiga amal qilgan holda aniqlanadi.

**Jami maksimal ball – 10.**

**h) Elektron tanlov ishtirokchisi tomonidan tanlovga qo'yilgan mahsulotni topshirish muddatini baholash.**

Elektron tanlov ishtirokchisi tomonidan tanlovga qo'yilgan mahsulotni ishlab chiqish va ishga tushirish muddati quyidagicha baholanadi:

agar mahsulotni shartnomada ko'rsatilgan muddatdan 10 kun oldin bajarib ishga tushirsa 5 ball, 15 kun oldin bajarib ishga tushirsa 7 ball, 20 kundan oldin bajarib ishga tushirsa 10 ball beriladi. Bajarish kunini ko'rsatgan holda kafolat xati ilova qilinadi.

**Jami maksimal ball – 10.**

Taqdim etilgan va tasdqilangan elektron ma'lumotnomalar, jadvallar haqiqiyligiga, to'g'riligiga hamda ishonchlilikiga ishtirokchi javobgardir. Ishtirokchi tomonidan soxta ma'lumotnomalar taqdim etilgan taqdirda, kommissiya tomonidan ball berilmaydi.

**6. Yakuniy qoidalar**

7.1. Ushbu reglament Xarid komissiyasining vazifa va funksiyalarini hamda baholash mezonlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

7.2. Xaridlar bo'yicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha Elektron tanlov o'tkazishda Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan "Study in Uzbekistan" maxsus veb-portalini ishlab chiqish va ishga tushirish yuzasidan Xarid komissiyasining ish reglamentiga ilova

### Baholash mezoni jadvali

Nº	Baholash mezoni	Taqdim etiladigan hujjatlar	Maksimal ball
1	<b>Tanlov ishtirokchisining faoliyatini baholash</b>	Korxonani davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi qayd etilgan guvohnomasi.	15
2	<b>Tanlov ishtirokchisining mas'uliyatini baholash</b>	Oldingi o'z muddatida bajargan ishlari haqida(nomi keltirilishi shart) tasdiqlangan ma'lumotnomma va kafolat xati taqdim etiladi.	10
3	<b>Tanlov ishtirokchisining tajribalarini baholash</b>	Tanlov ishtirokchisi aynan dasturiy mahsulot faoliyatini yuritayotganligi haqidagi tasdiqlangan ma'lumotnomma. (Ma'lumotnomada aniq davrsanasi, korxona rasmiy sayti, hamkorlar nomi)  Eng zamonaviy texnologiyalar asosida muvaffaqiyatli yaratilgan va hozirda ishchi holatida bo'lgan loyihalarning tasdiqlangan ro'yxati. (Loyiha nomi, foydalanilgan texnologiyalarining batafsil ma'lumi, resurs havolasi)	25
4	<b>Tanlov ishtirokchisining oldingi muvaffaqiyatli bajargan ishlarni baholash</b>	Korxona tomonidan oldingi muvaffaqiyatli bajargan va hozirda aktiv bo'lgan ishlarni tasdiqlangan ro'yxati.(Jadval ustun nomlari: Loyiha nomi,	15

		qabul qilgan va topshirilgan vaqt, turi, qaysi dasturlash tili va texnologiyadan foydalanganligi, ishchi holati, resurs havolasi)	
5	<b>Tanlov ishtirokchisining xodimlar(dasturchi, dizayner, tarjimon kopirayter v.b) son</b>	Korxonani ishchi xodimlar soni va lavozimi to‘g‘risidagi jadval ko‘rinishidagi tasdqlangan ma’lumotnoma. (Har bir xodimni F.I.O, tug‘ilgan yili, mutaxassiligi, lavozimi, ishga qabul qilingan va buyrug‘i sanasi ilova qilinsin shart)	15
6	<b>Tanlov ishtirokchisini moliyaviy ahvoli bo‘yicha baholash</b>	Tanlov ishtirokchisini yillik balansi, hisob raqamida shartnoma summasining 30% miqdorida mablag‘ mavjudligi to‘g‘risida tegishli bank ma’lumotnomasi ilova qilinishi shart.	10
7	<b>Tanlov ishtirokchisi tomonidan tanlovga qo‘yilgan mahsulotni topshirish muddatini baholash</b>	Bajarish kunini ko‘rsatgan holda kafolat xati ilova qilinadi.	10
	<b>Jami</b>		<b>100</b>

*Eslatma! Taqdim etilgan va tasdiqlangan elektron ma’lumotnomalar, jadvallar haqiqiyligiga, to‘g‘riligiga hamda ishonchlilikiga ishtirokchi javobgardir. Ishtirokchi tomonidan soxta ma’lumotnomalar taqdim etilgan taqdirda, komissiya tomonidan ball berilmaydi!*